TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BANKLAR ORQALI MOLIYAVIY RAG‘BATLANTIRISHNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Tojiyev Javlonbek Rustamovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID:0009-0003-4678-2423

Annotatsiya: Tadbirkorlik subyektlarini mikrokreditlash mexanizmlarining samaradorligi va unumdorligini oshirish maqsadida bir qancha takomillashtirishlarni amalga oshirish mumkin. Birinchidan, kredit talabgorlarini keng qamrovli va shaffof baholash tizimini yaratish haqiqiy ehtiyoj va qobiliyatga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar hamda korxonalarga moliyaviy yordam ko‘rsatilishini ta’minlaydi. Ikkinchidan, mikrokredit tashkilotlari va biznesni qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish arizachilarga nafaqat moliyaviy resurslarni, balki o‘z biznes faoliyatini optimallashtirish uchun qimmatli yo‘l-yo‘riq va maslahat olish imkonini beradi.

Ushbu maqolada mamlakatimizdagi kichik biznes subyektlarini banklar tomonidan moliyaviy resurslar bilan ta’minlash jarayonining samaradorligi, muammolar va ularni hal etishning istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy banki, tadbirkorlik, mikrokredit, kichik biznes, moliyaviy rag‘batlantirish, banklar, moliyaviy resurslar, kreditlar, samaradorlik, iqtisodiy barqarorlik, kredit olish jarayoni, biznes.

Annotation. In order to increase the efficiency and productivity of microcrediting mechanisms for business entities, a number of improvements can be implemented. Firstly, the creation of a comprehensive and transparent system for evaluating loan applicants will ensure the provision of financial assistance to individuals and enterprises with real needs and capabilities. Secondly, the development of cooperation between microcredit organizations and business support organizations will allow applicants not only to receive financial resources, but also valuable recommendations and advice on optimizing their business activities.

This article examines the effectiveness of the process of providing banks with financial resources for small business entities in our country, as well as the problems and prospects for their solution.

Key words: Central Bank, entrepreneurship, microcredit, small business, financial incentives, banks, financial resources, loans, efficiency, economic stability, credit process, business.

ISSN 3030-3907

Аннотация: В целях повышения эффективности и производительности механизмов микрокредитования субъектов предпринимательства можно осуществить ряд усовершенствований. Во-первых, создание всеобъемлющей и прозрачной системы оценки претендентов на кредиты обеспечит оказание финансовой помощи физическим лицам и предприятиям, имеющим реальные потребности и способности. Во-вторых, развитие сотрудничества между микрокредитными организациями и организациями по поддержке бизнеса позволит заявителям получать не только финансовые ресурсы, но и ценные рекомендации и советы по оптимизации своей бизнес-деятельности.

В данной статье рассматривается эффективность процесса обеспечения банками субъектов малого бизнеса финансовыми ресурсами в нашей стране, проблемы и перспективы их решения.

Ключевые слова: Центральный банк, предпринимательство, микрокредит, малый бизнес, финансовое стимулирование, банки, финансовые ресурсы, кредиты, эффективность, экономическая стабильность, процесс получения кредита, бизнес.

K i r i s h

Bugungi kunda kichik biznes mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim drayverlardan biri bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lsada, bugungi kunda kichik biznesning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillardan biri, banklardan olingan kreditlar bilan bog‘liq muammolardir. Kichik biznesga moliyaviy yordam ko‘rsatishning samaradorligi banklar va kichik biznes subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro ishonchga bog‘liq. O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sishi uchun kichik biznesni rivojlantirish juda muhimdir, shuningdek, banklar tomonidan kichik biznesga beriladigan kreditlarning miqdori, foizlari va shartlari ularning rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

M A V Z U G A O I D A D A B I Y O T L A R S H A R H I


O‘zbekiston Markaziy Banki tomonidan 2023-yilda o‘tkazilgan tahlilga ko‘ra, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish uchun taqdim etilgan kreditlar miqdori 2020-yildan buyon 12% ga oshgan. Biroq, kichik biznesning ehtiyojlarini to‘liq qondirish uchun banklar tomonidan taqdim etilgan kreditlar hali ham yetarli emas. 2023-yilda kichik biznesga berilgan jami kreditlar 3 trillion so‘mdan oshmagan, bu esa umumiy kredit portfelining 15% ni tashkil etadi.[1]

[1] https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

ISSN 3030-3907

Shunday bo‘lsada, O‘zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirishda bir qator ijobiy o‘zgarishlar ham mavjud. Masalan, 2021-yilda «Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi» tashkil etilgan bo‘lib, bu jamg‘arma kichik biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar taqdim etadi. Biroq, jamg‘armaning resurslari kichik biznesning ehtiyojlarini to‘liq qondira oladi deb ayta olmaymiz.[2]

Shuningdek, davlat tomonidan kichik biznesga beriladigan moliyaviy yordamlar ko‘pincha tartibga solingan va banklar tomonidan qo‘yiladigan talablar ko‘pincha kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga yetarli emas.



1-rasm. Aholiga ajratilgan kreditlar tarkibida mikroqarz va mikrokreditlar salmog‘i (foiz hisobida) [3]

Dunyo tajribasidan ko‘radigan bo‘lsak, misol uchun Yaponiyada banklar kichik biznesga yuqori foiz stavkalarisiz va soddalashtirilgan shartlar bilan kreditlar taqdim etishadi. Natijada, kichik biznesning rivoji tezlashdi, yangi ish o‘rinlari yaratildi va iqtisodiy barqarorlik ta’minlandi. Shuningdek, AQShda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun Small Business Administration (SBA) tomonidan taqdim etilgan kreditlar kichik biznes subyektlarining o‘sishini ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. SBA kreditlari o‘zining past foiz stavkalari va uzun muddatli to‘lov imkoniyatlari bilan tanilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

[2] Asosiy_yunalishlar_2024_2026.pdf (cbu.uz).
[3] Asosiy_yunalishlar_2024_2026.pdf (cbu.uz).

ISSN 3030-3907

Mazkur tadqiqotda kichik biznes subyektlarini banklar tomonidan moliyaviy resurslar bilan ta’minlash jarayonining samaradorligi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari nazariy jihatdan chuqur tahlil qilingan.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar va sohaga oid tashkilotlar olib borayotgan ilmiy nazariyalar o‘rganilgan. Tadqiqotda ilmiy tahlil, mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash, taqqoslash va statistik kuzatuv kabi usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida mikromoliyalashtirishning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta’sirini aniqlash uchun ilmiy va amaliy usullar qo‘llanildi. Ma’lumotlar to‘plashda statistik ma’lumotlar, so‘rovnomalar va ekspertlar bilan intervyulardan foydalanildi. Tahlil qilishda iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi o‘rganilib, taqqoslash va regressiya usullari qo‘llandi. Olingan natijalar mikromoliyalashtirishning samaradorligini baholash va rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda shuningdek kredit olish jarayonining murakkabligi o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Sababi, banklar kredit berishda yuqori riskni hisobga oladi, shu sababli kichik biznes subyektlaridan ko'plab hujjatlar talab etiladi. Masalan, kichik biznes subyekti “Tadbirkorlikka o'qitish dasturi bo‘yicha qisqa muddatli o'quv kursini muvaffaqqiyatli yakunlaganlik to'g'risida” guvohnomani taqdim etishi kerak, shuningdek, kredit olish uchun biznes-reja va boshqa moliyaviy hujjatlarni ko'rsatish talab etiladi. Bu jarayon, ayniqsa yangi boshlanuvchi bizneslar uchun juda qiyin bo'lishi mumkin.

Misol uchun, tadbirkorlik sub’ektlariga qisqa muddatli, yuqori daromadli kredit mahsulotlari va revolver kreditlar ajratilishini samarali yo‘lga qo‘yish, mikromoliyaviy xizmat turlarini (mikrolizing – 750 million so‘mdan oshmaydigan miqdorda, mikrokredit – 300 million so‘mdan shmaydigan miqdorda, mikroqarz – 100 million so‘mdan oshmaydigan miqdorda) ko‘paytirish va rivojlantirish haqidagi taklifi «Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat banki Boshqaruvi raisining 2024 yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha belgilangan Ish rejasining ishlab chiqilishida foydalanilgan. Natijada, 2024 yilga mo‘ljallangan bank strategiyasi va biznes-reja ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash hisobiga 1-chorakda soliqqacha bo‘lgan foydani 42,9 mlrd. so‘mga va aktivlar rentabelligini 0,47 foizga, 2-chorakda soliqqacha bo‘lgan foydani 81,7 mlrd. so‘mga va aktivlar rentabelligini 0,60 foizga, 3-chorakda soliqqacha bo‘lgan foydani 120,6 mlrd. so‘mga va aktivlar rentabelligini 0,72 foizga, 4-chorakda soliqqacha bo‘lgan foydani 164,3 mlrd. so‘mga va aktivlar rentabelligini 0,83 foizga etkazilishi belgilangan.

ISSN 3030-3907

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida kichik biznesga taqdim etilgan kreditlar orqali 2022-yilda 25,000 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Shuningdek, kichik biznes sektorining iqtisodiy o'sishi 7% ni tashkil etdi, bu esa kichik biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlashga yordam berdi. Albatta kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda davlat siyosatining o‘rni juda katta. Davlat kichik biznesni moliyaviy rag‘batlantirish uchun maxsus soliq imtiyozlarini taqdim etishi, shuningdek, kredit foiz stavkalarini kamaytirish orqali kichik biznesning rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.

Masalan, tijorat banklarining o‘z mablag‘lari hisobidan savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subekti hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarga aylanma mablag‘larni shakllantirish va to‘ldirish uchun naqd pul shaklida 300 million so‘mgacha bo‘lgan miqdorda mikrokreditlar ajratish, mikro va makro biznes hamda o‘rta va korporativ biznes vakillari uchun ajratilayotgan kreditlar ulushini oshirishning maqsadga muvofiq ekanligi haqidagi taklifi «Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankini 2025 yilgacha rivojlantirish strategiyasi bo‘yicha ishlab chiqilgan «Yo‘l xaritasi» ishlab chiqilishida foydalanilgan. Natijada, «Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining 2024 yilning 12 oyida aktivlari 21 foizga oshishiga xizmat qilgan hamda 2025 yilga kelib, tadbirkorlik sub’ektlariga ajratilyotgan mikrokreditlar hajmini ikki karra oshirilishi belgilangan.

O‘zbekiston Markaziy Bankining 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari orqali 50,000 dan ortiq yangi biznes tashabbuslari qo‘llab-quvvatlangan va ular 35% ortiq iqtisodiy o‘sish sur’atini ko‘rsatgan. [4]

[4] O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Tijorat banklari tomonidan barcha moliyalash manbalari hisobidan kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlar va mikrokreditlar dinamikasi (mlrd. so‘mda) [5]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish, ayniqsa, banklar orqali amalga oshirilishi, mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Biroq, mavjud kredit mexanizmlarida hali ham ko‘plab muammolar mavjud bo‘lib, bu kichik biznesning to‘liq rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Banklar tomonidan taqdim etiladigan kreditlar ko‘plab kichik biznes subyektlari uchun qiyin shartlar, yuqori foiz stavkalari va yetarli darajada moslashtirilmagan kredit mahsulotlari bilan tavsiflanadi.

Kredit olish jarayonini asonlashtirish maqsadida yangicha yo‘nalishlar ishlab chiqilmoqda. O‘zbekistonning markaziy va viloyat hududlarida kichik biznesga taqdim etilgan imtiyozli kreditlar hali ham cheklangan, ammo banklar va kichik biznes o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, kichik biznesni moliyalashtirishning samaradorligi yuqori foiz stavkalarini pasaytirish, kredit shartlarini soddalashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish orqali oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston hukumati tomonidan kichik biznesni rivojlantirish va moliyalashtirishni rag‘batlantirish uchun amalga oshirilgan bir qancha islohotlar

[5] O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ISSN 3030-3907

va dasturlar kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga yordam bermoqda. Biroq, kredit olish jarayonlarini soddalashtirish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlovchi yangi mexanizmlar yaratish, shuningdek, banklarning kichik biznesga bo‘lgan yondashuvini yangilash zarur. Shuningdek, kichik biznesga ko‘proq yordam berish uchun davlat va moliya institutlarining hamkorligi kuchaytirilishi kerak.

Kichik biznes subyektlariga o‘tilgan yillar davomida ko‘rsatilgan moliyaviy rag‘batlar va kreditlar natijasida yangi ish o‘rinlari yaratildi, soliq to‘lovlari oshdi va iqtisodiy barqarorlikka erishildi. Ammo bu boradagi ishlar to‘liq emas, va kichik biznesga qarshi to‘siqlarni bartaraf etish uchun yanada kengroq va tizimli yondashuv talab qilinadi. Kichik biznesni moliyalashtirishda davlat va banklar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, yangi imtiyozli kredit mexanizmlarini yaratish va kichik biznes subyektlarining ehtiyojlariga moslashtirilgan moliyaviy mahsulotlarni taklif etish orqali, O‘zbekiston iqtisodiyoti yanada mustahkamlanadi va rivojlanadi.

Shuningdek, kichik biznesni moliyaviy rag‘batlantirishdagi asosiy muammolarni hal qilish uchun quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

Kichik biznes subyektlariga beriladigan kreditlar uchun foiz stavkalarini pasaytirish.

Kredit olish jarayonlarini soddalashtirish va hujjatlarni kamaytirish.

Banklar va kichik biznes o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash uchun o‘zaro aloqa va hamkorlikni kuchaytirish.

Davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun yangi dasturlar va mexanizmlar ishlab chiqish. Shunday qilib, kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun keng qamrovli chora-tadbirlar, davlat va banklar o‘rtasida samarali hamkorlik, shuningdek, kichik biznes subyektlarining ehtiyojlariga javob beradigan moliyaviy resurslar va xizmatlarni yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2023). *Kichik biznesni moliyalashtirish bo'yicha tahlil va istiqbollar.* Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki.

2. Fayziyev, A. (2021). *O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirish: Mavjud holat va istiqbollar.* Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.

3. Galiyev, M. (2020). *Banklar va kichik biznes o'rtasidagi munosabatlar: Nazariya va amaliyot.* Toshkent: Iqtisodiy Tadqiqotlar va Islohotlar Markazi.

ISSN 3030-3907

4. Tursunov, R. (2022). *Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari va ularning samaradorligi.* O'zbekiston iqtisodiyoti: amaliy masalalar va yechimlar, 14(5), 102-108.

5. Sodiqov, S. (2020). Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda moliyaviy xizmatlar va banklar roli. Iqtisodiyot va moliya jurnali, 12(3), 102-115.

6. Shayxov, B., & Usmonov, R. (2021). O'zbekistonning kichik biznes sektorini moliyaviy rag'batlantirish: banklar va davlat siyosatining o'zaro ta'siri. O'zbekiston iqtisodiyoti va islohotlar jurnali, 19(2), 50-65.

7. Rustamovich, T. J. (2024). Social media marketing strategies for small businesses. *American journal of business management*, *2*(3), 62-65.

8. Rustamovich, T. J. (2024). Types and methods of innovative marketing in the organization of business activities. *American journal of business management*, *2*(3), 56-61.

9. Tojiyev, J.R, (2022). Art teacher training in technology. *Science and Innovation*, *1*(8), 2286-2289.

10. Tojiyev J.R., (2024). Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda mikromoliyalashtirishning rolini oshirish yo'llari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. -ISSN: 2992-8982, 2024-yil. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

11. Tojiyev J.R., (2024). Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини ривожлантиришда микромолиялаштиришнинг хусусиятлари. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. -ISSN: 2992-8982, 2024-yil. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

12. Tojiyev J.R., (2024). Роль микрофинансирования в развитии предпринимательства в Узбекистане. International scientific-practical conference. 2024-yil 10-oktabr, Toshkent, O zbekiston. 948 c.

Internet saytlar

1. https://cbu.uz/oz
2. https://mkbank.uz/uz
3. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

ISSN 3030-3907